

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OTA – ONALAR
HAMKORLIGI ASOSIDA TA'LIMIY FAOLIYATNI
TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI**

*Surxondaryo viloyati Uzun tumani 31-sonli DMTT direktori
Boltayeva Shohsanam Abdusamat qizi*

Annatatsiya: Maqolada maktabgacha ta`lim bilan ota-onal hamkorligi, bog`liq jihatlari va albatta maqsad va vazifalari xususida so‘z yuritiladi.

Аннотация: В статье говорится о сотрудничестве родителей с дошкольным образованием, связанных с ним аспектах и, конечно же, целях и задачах.

Abstract: The article talks about the cooperation of parents with preschool education, related aspects and, of course, goals and objectives.

Kalit so‘zlar: Ota-onal, hamkorlik, maktabgacha ta`lim, tarbiyachi, samara, tarbiyalanuvchi, maqsad.

Ключевые слова: Родители, сотрудничество, дошкольное образование, педагог, эффективность, ученик, цель.

Key words: Parents, cooperation, preschool education, teacher, effectiveness, student, goal.

Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni mакtab ta`limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta`lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarni tattiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimizda tub islohotlar amalgalash oshirilmogda.

Ota-onalar va maktabgacha ta`lim tashkilotlari o‘rtasidagi faol hamkorlik bolalarning barkamol rivojlanishini ta‘minlaydi, ta`lim sifatini oshiradi va jamiyatda sog‘lom avlod shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu hamkorlikni takomillashtirish uchun tizimli yondashuv va innovatsion usullarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

➤ **Ota-onalarni ta`lim jarayoniga jalb qilish:** Ota-onalar va ta`lim muassasalari o‘rtasidagi doimiy aloqani yo‘lga qo‘yish orqali bolalar rivojlanishini birgalikda kuzatish va qo‘llab-quvvatlash mumkin.

➤ **Ma’rifiy seminarlar va treninglar tashkil etish:** Ota-onalarga pedagogika va psixologiya bo‘yicha zarur bilimlar berish, shuningdek, ularning tarbiyaviy jarayondagi roli va mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

- **Hamkorlikda tashkil etilgan tadbirlar:** Bayramlar, ijodiy va sport mashg‘ulotlari, ota-onalar ishtirokida kechadigan maxsus darslar bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi.
- **Shaxsiy yondashuvni qo‘llash:** Har bir oila va bola ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’limiy faoliyatni moslashtirish, natijada, individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.
- **Raqamli texnologiyalarni joriy etish:** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ota-onalar o‘rtasida zamонавиу aloqa vositalari orqali axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, onlayn monitoring va maslahatlashuvlar tashkil qilish jarayonni qulaylashtiradi.
- **Tarbiyaviy maqsadlarning uyg‘unligi:** Ta’lim tashkiloti va ota-onalar tomonidan qo‘yilgan tarbiyaviy maqsad va vazifalarning bir-biriga mosligi bolalar rivojlanishida katta natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Ota-onalarning asosiy maqsadi

- **Bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash:** Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini uyg‘unlashtirishga yordam beradi.
- **Ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki:** Ota-onalarni faol tarzda ta’lim jarayoniga jalb qilish, ularning farzandlari rivojlanishiga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi va bolalar tarbiyasida yaxlit yondashuvni ta’minlaydi.
- **Birgalikdagi tadbirlar va loyiham:** Bayramlar, treninglar, seminarlar va ijodiy mashg‘ulotlar ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlaydi va ta’lim jarayonini qiziqarli qiladi.
- **Shaxsiy yondashuvni rivojlantirish:** Har bir oilaning ehtiyoj va imkoniyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv dasturlarini moslashtirish ota-onalar bilan samarali muloqotni kuchaytiradi.
- **Raqamli texnologiyalarni qo‘llash:** Onlayn platformalar orqali ota-onalar bilan doimiy aloqa o‘rnatish va farzandlari rivojlanishiga oid ma’lumotlarni monitoring qilishni osonlashtiradi.

Jamiyatda ro‘y berayotgan siyosiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Pedagogik nazariyani targ‘ib qilish orqali ota-onalar va o‘qituvchilar bilan o‘zaro hamkorlik hamkorlik orqali amalga oshiriladi.



MTT bilan ota – onalarning bir-biriga bog‘liq jihatlar. MTT bilan ota-onalar burchlari va vazifalari, maqsadi bir-biriga o‘xshaydi. MTTning asosy maqsadi bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo‘ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezishlari amalga oshiruvchi

ta’lim – tarbiya jarayonini olib borishdan iborat bo`lsa, ota-onal bolalarni ma’naviy barkamol qilib shakllant-irishdagi asoslarni hosil qilishda MTTdan samarali foydalanish va bola aqliy kamolotini ma’naviy kamolot bilan uyg’un holda rivojlantirishga erishishdir. Bolalarning MTT dagi hayot kechirishini tashkil etishda faol ishtirok etish. Bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘i uchun g‘amxo‘rlik qilish. Maktabgacha ta’lim esa ustaviga muvofiq bo‘lgan zarur shart – sharoitlarni ta’minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog‘lig‘ini mustahkamlashga doimo g‘amxo‘rlik qilishdir. Bola shaxsini shakllantirish, bilimga qiziqishini rivojlantirishdir. MTTda bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta’minlanadi. Bolada onglilik va ijodkorlikka qiziqish oshadi. Bunda MTT dagi va oiladagi ma’naviy sog‘lom muhit e’tiborga olinadi. Ixtisoslashtirilgan MTT da bunga boshqa talab qo‘yiladi. Bunda bolalarga ma’naviy immunologik tarbiya berish asos qilib olinadi. Oila va bola ma’na-viyatining sog‘lom bo‘l-ishiga e’tibor berila-di. Bolalardagi tozalik, ozodalik, tartib – intizomlilik kabi insoniy sifatlar shakllanishiga asos yaratiladi. Bolalardagi ma’naviy – axloqiy tarbiya rivojlanishi e’ti-borga olinadi. Bolalar ongida ezgulik insonlarni yaxshilikka yetaklashi haqidagi ma’lumotlar paydo bo‘lishi e’tiborda bo‘ladi. Turli salbiy oqibat-lar haqida bolalar ongida tasavvur paydo bo‘ladi. “Ibrat – namuna – hayot dorilfununi” turkumi-dagi ma’lumotlardan foydalanish kerak. Bola tarbiyasidagi rag’batlantirish va jazolash me’yorlariga amal qilish lozim bo‘ladi. Qiziqishga oid faol-iyatga moyillik kuchli bo‘ladi.

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- + bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilagan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- + maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;

- + bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish.

Yuqorida bayon qilingan dolzarb muammolar haqiqatdan ham, Davlat talablarining bosh tamoyili bo‘lgan — bolaning noyobligi, bolaning huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi, bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy rolini anglagan holda, MTT, oila, tarbiyachi-pedagoglar hamda ota-onalarning bevosita, doimiy va samarali hamkorligini talab etadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’limda ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish haqida gap borar ekan avvalob ularni bir-biriga bog’laydigan usullarni o‘ylab topish lozim. Masalan, ota-onalar yig’ilishlari. Bunda ota-onal bolasi haqida eng ko‘p ma’lumotlarni shu jarayonda oladi. Ularga yig’ilishda o‘zi uchun bolasi haqida mavzularni tanlashda quyidagi ro‘yxat taqdim etilishi samarali:

- ⊕ bolaning o'sishi va rivojlanishi;
- ⊕ qiyin xulq-atvorni qanday tuzatish mumkin;
- ⊕ bolaning ovqatlanishi; bolalar kasalliklari; o'yin orqali o'rgatish;
- ⊕ shaxsiy qadr-qimmat hissini rivojlantirish; nutqni rivojlantirish;
- ⊕ o'yinchoqlarni tanlash va h.k. Yana bir muhim usullardan biri bu bolalar bog'chalarida ota-onas burchaklarini tashkillashtirishdir.

Bu burchak har bir guruhda bo'lishi shart. Ularning asosiy maqsadi bolalar va bolalar bog'chasida nima qilayotgani haqida onalar va onalarga xabar berishdir. Ushbu stendlarda turli xabarlar, tug'ilgan kun, tabriklar berilsa ota-ota xabardor bo`lib turadi. Ikkinchidan, asosiy narsa, bolasi haqidagi qiziqarli va g'ayrioddiy bir hikoya bilan tanishishtirib borish kerak. Asosiy maqsad - ota-onalar uchun stendlardagi barcha muhim ma'lumotlarni optimallashtirish va guruhning ichki xonasida yaxshi niyat va qulaylik yaratish. Ota-onalar uchun tadbirlar Barcha bolalarni otalari uchun tashkil etilgan tadbirga taklif qilish ham samara beradi. Otalarning MTTdagi pedagogik jarayonlarga qay tarzda ishtirok etishlarini aniqlashtirish, ya'nii ular balkim, ustachilik qilishni, ovqat tayyorlashni biladilar yoki san'atdan mashg'ulot o'tkazish uchun xonani jihozlashga yordam berishlari mumkin. Mahoratli tarbiyachi bir-birlarini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari uchun ikki nafar otani guruhga yoki yig'ilishga birgalikda kelishga taklif etadi, otalar bir-birlari bilan uchrashishlari va o'z bolalari to'g'risida fikr almashishlari uchun tadbir tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari tarbiyalanuvchilarning uylariga tashriflar o'tkazgan holda ota-onalar bilan va undan tashqari ularning boshqa oilaviy yaqin insonlari bilan yaqindan tanishi, ularning oilaviy va do'stona muhitlarini o'rghanishi, o'z tajriba va sohalaridan kelib chiqqan holda oiladagilarga tarbiyalanuvchilar uchun kerakli bo'lgan muhim omillar va oilaviy o'zaro do'stona muhitning bola psixologiyasi va uning ma'naviy kamoloti va yuksak salohiyati uchun naqadar muhim ekanligini tushuntirish ishlarini olib borish kabi bir qator hamkorlik tizimlari orqali bolajonlarni har tarafdan qo'llab-quvvatlash, ularni jismonan va ma'nan yetuk, o'ziga ishonchli, o'z maqsadiga ega bo'lgan komil insonlar qilib tarbiyalashda ota-onalarning va oiladagilarning ham o'rni, ular bilan o'rnatilgan aloqa va hamkorliklarning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini tatbiq etish mumkin va bu zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arziqulova S.F. "Экономика и социум" №10(89) 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil. 8-bet
3. "Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil. 13, 15-bet.
4. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent - 2019
5. Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.

-
6. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent “O’qituvchi” 1993 yil.

